

**YOLPOYI GRUNTLARINING NAMLANISH
MANBALARINI ASOSLASH**

Maxmudova Dilfuza

TDTU dotsenti

Abdullayeva Diyora

TDTU talabasi

ANNOTATSIYA: Maqolada O'zbekiston hududida avtomobil yo'llari yo'l poyi gruntlarining namlanish manbalari va ularning muhim ta'sirlari tahlil qilingan. Namlik-issiqlik muvozanati, kapillyar ta'sir, atmosfera yog'inlari va yer osti suvlari orqali gruntlarda yuzaga keladigan namlanish jarayonlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yo'l poyi, grunt, namlanish manbalari, kapillyar ta'sir, suv balansi, infiltratsiya, yo'l mustahkamligi, asfaltbeton, suv-issiqlik rejimi, O'zbekiston yo'llari.

ANNOTATION: This article analyzes the sources of moisture affecting subgrade soils of roads in the climatic and hydrological conditions of Uzbekistan. The processes of moisture exchange caused by precipitation, groundwater rise through capillaries, and atmospheric humidity are scientifically substantiated.

Key words: subgrade, soil, sources of moisture, capillary effect, water balance, infiltration, road strength, asphalt concrete, hydrothermal regime, roadbed moisture, Uzbekistan's road.

Hozirgi kunda mamlakatimiz avtomobil yo'llaridagi harakat miqdori va tarkibining o'zgarishi yo'l toshamasi va yo'l poyiga tushadigan yuklamalarning sezilarli ortishiga olib kelmoqda. Yo'l toshamasi va yo'l poyi atrof-muhitning bir elementi sifatida tabiiy-issiqlim sharoitlarining ta'siri ostida bo'ladi. Namlik-issiqlik ta'siri yo'l poyi gruntlarining namlanishi, qurishi, muzlashi va erishining almashinib turishi sifatida namoyon bo'lib, bularning natijasida mustahkamlik kamayib, yo'l tuzilmasining buzilishiga olib keladi. Namlikning biroz miqdordagi har qanday o'zgarishi yo'l poyi ishchi qatlamidagi gruntlarning mustahkamlik tavsiflarini o'zgarib yuboradi [1]. Shuning uchun barcha muhandislik yechimlari va me'yoriy talablar yo'l poyiga suvning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, yo'l poyi uchun lyoss gruntlaridan foydalaniladigan, sugoriladigan, yozi issiq va quruq, hamda qishki sovuq vaqtida ham asosiy yog'in yomg'ir ko'rinishida bo'ladi, hududda yo'l poyini suvning ta'siridan himoyalash muhim masala hisoblanadi.

Yo'l poyidagi namlik miqdori yil davomida doimiy bo'lmaydi va ma'lum vaqt oraliqlarida suv balansi tenglamasiga muvofiq o'zgaradi [2]:

$$W = (A + V + S) - (D + E + F),$$

bu yerda: A-yo'l poyiga tushadigan yog'in-sochin miqdori; V-yo'lga yondosh joydan oqib tushadigan suv; S-sizot suvlari satxidan kapillyarlar bo'ylab, shuningdek, namning pardasimon va bug'simon siljishi natijasida oqib keladigan suv; D-yo'l poyidan oqib tushadigan suv; E-grunt sirtidan namning bug'lanishi; F-yo'l poyidagi suvni gruntning chuqur qatlamlariga sizishi.

Adabiyot manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud yo'll poyining namlanishiga asosan atmosfera yomg'ir suvlari, uning yon bag'ri va yuzasida yig'ilib singuvchi suvlar, kapillyarlar orqali ko'taruluvchi yer osti suvlari va bug' holdagi suvlar sabab bo'llishi mumkin.

Tadqiqotchi olimlar yo'll poyi gruntining namlanishida yomg'ir suvlaring ahamiyati kattaligini alohida ta'kidlaganlar. Prof. A.Ya.Tulaev va V.I.Ruvinskiylar fikricha hamma turdag'i qoplamlar, shuningdek kapital turdagilari ham, bir necha yil hizmat qilganligidan co'ng suv o'tkazuvchan bo'llib qoladi. Asfaltbeton yoki sementbeton qoplamlarda yangi qurilgan davrida infiltratsiya kam bo'lladi, ammo qoplamani o'seskirishi bilan uning qiymati oshib boradi [3].

Sementbeton va asfaltbeton yo'llarning uzunligi (22008 km) qora chaqiq tosh, shag'al qoplalmali va grunt yo'lllar (20550 km) bilan tahminan barobar ekanligi kelib chiqadi. Bundan yo'll poyi gruntining namlanishida unga yuqoridan singib kiruvchi suvlarning ahamiyati ham kattaligi to'g'risida hulosa qilish mumkin. Chunki yengillashtirilgan va o'tuvchi turdag'i qoplalmali (III - IV toifali) va grunt yo'llarda ularga suvning singib kirishi, ularning filtratsiya koeffitsientini kattaligi uchun oson kechadi. Shuningdek, yuqorida eslatib o'tilganidek, asfaltbeton va sementbeton qoplamlar vaqt o'tishi bilan o'seskirishi va ularning suv o'tkazish qobiliyati oshishi mumkin.

Bugungi kunda respublikada ta'mirlash ishlarining hisobiy muddatda bajarilmasligi, qurilish materiallarining talabga javob bermasligi, zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, sohada malakali mutaxassislarga bo'llgan talabning yuqoriligi hamda yo'llardan foydalanish sharoitlarining o'rorganilmaganligi kabi sabablar tufayli, o'ta'mirlanmay qolgan yo'llar ko'payib bormoqda va bu ko'rsatkich umumiyligi foydalanishdagi yo'll tarmog'ining 59% ni tashkil qiladi. Shuningdek avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlarining moliyalashtirishni amaliy ko'rsatkichlari yildan-yilga kamayib bormoqda, ya'ni o'ta'mirlanmay qolgan yo'llar ko'payib bormoqda. Bu ko'rsatkich va ma'lumotlar ham yo'll poyi namligini ortishiga uni yuzasidan singib kiruvchi suvlarning ahamiyati kattaligini bildiradi.

Avval olib borilgan ilmiy ishlarning tahlil va xulosalari O'zbekistonning sug'oriladigan hududlaridagi yo'll poyini namlanishida atmosfera suvlardan tashqari kapillyarlar orqali grunt suvlardan ko'tarilib chiquvchi kapillyar va bug'simon suvlarning ahamiyati ham kattaligini ko'rsatadi.

Albatta, tabiatda, amaldagi yo'll poyini namlanishi ko'p hollarda, ayniqsa yer osti suvlarning yer yuzasiga yaqin bo'llgan O'zbekistonning hududlarida: Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida; Buxoro, Samarkand, Qashqadaryo viloyatlari va Farg'ona vodiysining ayrim tumanlarida, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasida keltirilgan namlanish manbalarining alohida-alohida ta'siri ostida bo'llmasdan birgalikda bo'lladi. Shuning uchun yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, hozirda avtomobil yo'llarining yo'll poyining suv rejimini o'rorganishda, mualliflar, suv rejimining diffuzion-infiltratsiya va kapillyar-infiltratsiya turlarini o'rorganishni maqsad qilib qo'yganlar. Chunki yo'll poyining mustahkamligi uning namligiga to'g'ridan-to'g'ri bag'liq bo'llib, ularning mustahkamlik ko'rsatkichlari suv rejimini o'zgarishi natijasida o'zgaradi [4,5].

Xulosa sifatida, yuqorida keltirilganlardan, yo^{ll} to^{sh}shamasini hisob ishlarida foydalanuvchi hisobiy ko^{rsat}kichlarni asoslashda yo^{ll} poyi namligini belgilash va ularni qiymatlarini avvaldan ularga ta'sir quluvchi manbalarga qarab, bashorat qilish usullarini ishlab chiqish, hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri ekanligi kelib chiqishini aytish mumkin. Ayniqsa bu muammolarning hal qilinishi III – V toifali yo^{ll}larda muhim ahamiyatga ega va ma'lum darajadagi tadqiqot ishlarini olib borshni talab etadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.D. Kayumov, R.M. Xudayqulov, D.A. Maxmudova – Avtomobil yo^{ll}lari yo^{ll} poyining suv-issiqlik tartibi. O^{quv} qo^{ll}lanma. Toshkent. TDTU, 2021 y. 174 bet.
2. ShNQ 2.05.02-07 Avtomobil yo^{ll}lari O^{zbekiston} Respublikasi – Davarxitektqurilish qo^{ll}mitasi, Toshkent sh., 2007 y., 68 bet.
3. F.Babkov, O.V.Andreyev – Avtomobil yo^{ll}larini qidiruv va loyihalash I-qism. Toshkent – 2014 yil. 526 b.
4. Тулаев А.Я. Конструкция и расчет дренажных устройств. Транспорт. -М.: 1980. – 192 с.
5. Ilyosov N. Avtomobil yo^{ll}larini loyihalash. - Toshkent. O^{qituvchi}. 2001. – 283 b.